
Farg'ona viloyat ruhiy-asab kasalliklar shifoxonasida monitoring ishlari olib borildi

Aniqlanishicha, ushbu shifoxonada jami 360 nafar bemor ayol va erkaklarga tibbiy yordam ko'rsatiladi. Shifoxonada 10 ta bo'limlar mavjud. Bemorlarga jami 436 nafar xodimlar, ya'ni 28 ta vrach, 163 ta xamshira, 5 ta psixolog, 188 ta kichik tibbiyot xodimi, 50 ta xo'jalik xodimi, logoped, dorixona xodimlari xizmat qiladi.

Shifoxonada muolaja uchun xamma kerakli shart-sharoitlar, dori-darmonlar mavjud bo'lsada, lekin ma'muriyat binosi ta'mirtalab xolatda. Binoni rekonstruktsiya qilish ishlarini 2023 yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Xonalar ko'zdan kechirilganda bemorlarga sharoitlar yaratilganligi, yuvinish xonalari borligi, yaxshi xolatda ekanligi aniqlandi.

Shifoxonadagi bemorlarga yaratilgan sharoitlar, oziq-ovqat ta'minoti, davolanayotgan bemorlarning saqlanishi o'rganildi. Davolanayotgan bemorlarning 47 nafari bilan ommaviy, 2 nafari bilan yakkama-yakka uchrashib, suxbat o'tkazildi. Bemor A.B va O.Nlar bilan o'tkazilgan suxbatda ularga o'z vaqtida kerakli muolajalar o'tkazilayotganligi, tibbiy xizmatdan e'tirozlari yo'qligi, oziq-ovqat ta'minotidan ham shikoyatlari yuqligini bildirdilar.

Shifoxonada uzoq vaqtdan beri davolanayotganlar ham bor ekanligi aniqlandi. Jumladan, A.B 1993 yildan buyon davolanmoqda, dastlab onasi tirikligida vaqti-vaqti bilan davolanib turgan, keyinchalik esa ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi uchun jinoyat ishlari bo'yicha sudning xukmiga ko'ra tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilib, majburiy tartibda davolanib kelmoqda. Onasi vafot etganidan so'ng boshqa yaqinlaridan hech kim yo'qligi sababli ijtimoiy masalalarni xal etish maqsadida hozirgi kunga qadar davolanishni davom ettirayotganligi ma'lum bo'ldi.

Oshxona ko'zdan kechirilganda belgilangan menyularga asosan bemorlarga taomlar tayyorlanib, oziq-ovqat maxsulotlari to'liq va taomnomaga mos ravishda berilayotganligi aniqlandi. Monitoring tashrifi davomida mas'ullarga tegishli tavsiyalar berildi.

A.Kamilov, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha Farg'ona viloyati mintaqaviy vakili

2022-11-26 00:42:48